

UDK: 619

QORAQLPOG'ISTON SHAROITIDA MAALLIY QORAMOLLARDA TEYLERIOZ KASALLIGINING UCHRASHI

Arziyev X.Y. - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali.

*“Veterinariya meditsinasi va oziq – ovqat xavsizligi”
kafedrasida katta o'qituvchi, v.f.n.*

E- mail: arzievxiidir70@mail.ru

Arislanbekov I.A. – SamDVMCHBU Nukus filiali talabasi.

E- mail: ilhambekarislanbekov65@gmail.com

Abatbaeva A.M. – SamDVMCHBU Nukus filiali talabasi.

E- mail: abatbaevaaygul2301@gmail.com

Annotation: This article describes the incidence of Tayloriosis in Karakalpakstan, its economic damage to farms, its course, and the results of testing blood samples from farm animals.

Аннотация: В данной статье описаны заболеваемость телиозом в Каракалпакстане, его экономический ущерб хозяйствам, его течение, а также результаты исследований образцов крови, взятых у сельскохозяйственных животных.

Tayanch so'zlar: inektsiya, vaktsinatsiya, profilaktika, kompleks, vitamin, dezinfektsiya, invazion.

Kirish: Teylerioz yirik shohli hayvonlar, qo'tos hamda zebularning o'tkir va yarim o'tkir kechadigan transmissiv invazion kasalligi hisoblanib, Theileria annulata ni dastlab RES hujayralarida, so'ngra eritrotsitlarda parazitlik qilishi tufayli sodir bo'lib, limfa tugunlarining kattalanishi, tana haroratining ko'tarilishi, anemiya, yurak-tomir va hazm organlari faoliyatlarini izdan chiqishi, kasal hayvonlarning oriqlanishi va o'lim darajasining yuqori bo'lishi bilan harakterlanadi.

E.P.Djunkovskiy va I.I.Luslar 1903 yili Kavkaz orti vohasida yirik shohli hayvonlar orasida juda og'ir kechadigan, o'lim darajasi yuqori bo'lgan kasallikni uchrab, uni «tropik piroplazmozi» deb ataganlar. Bu kasallikka uchragan hayvonlarning qonidan tayyorlangan surtmalarda juda mayda halqasimon, yumaloq shaklidagi parazitlarning ko'pligi tufayli 1904 yili bu olimlar ushbu parazitlarga Piroplasma annulata deb nom berganligiga qaramay bu albatta teylerioz kasalligini qo'zg'atuvchisi bo'lgan.

O'zbekistonda yirik shohli hayvonlar orasida teyleriozning borligini birinchi bo'lib 1906-1909 yillari I.M.Kovalevskiy topgan, keyinchalik, 1928 yilga kelib

kasallikni Toshkentdagi veterinariya bakteriologik instituti (hozirgi Samarqandagi O'zVITI) xodimlaridan G.A.Obolduev, I.G.Galuzo, Z.M.Bernadskiylar o'rganib Respublikada qo'zg'atuvchining yangi turi Theileria turkestanica bor degan xulosaga kelganlar, ammo keyingitekshiruvlarda bu qo'zg'atuvchining Th.annulata ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotimizda u'y sharoitida kasallikka gumon qilingan qoramollardan olingan qon namunalaridan, hayvonlarda kasallik qozg'atuvchisi bor yoki yoq ekanligini laboratoriya sharoitida aniqlash. Maqsad o'z vaqtida kasallikni aniqlash va tarqalishining oldini olishdir.

Tadqiqot materiali va metodi. U'y sharoitida qora mollarda teylerioz kasalligini birlamchi o'rganish, taxminan kasallikni kelib chiqishi sabablarini o'rganish va ularni kliniik sabablarini jurnalga qayd etish. Veterinariya mutaxasislari bilan o'z -aro suhbat natijasida kasallikning qayta kuzatilishini oldini-olish.

Natijalar. – Mahalliy qoramollarda bu kasallik ob - havoning isishi, natijasida kanalarning aktivligi oshishi, natijasida parazit kanalarning qoramol parazit kanalarning chaqishi natijasida, qon teylerioz kasalligi paydo boladi.

Hayvon tana harorayining oshishi, qondagi namlikning kamayishi, qoramol terisi ishqalangan vaqtda o'ziga xos badboy hid chiqarishi kuzatiladi. Bunday hollarda qoramollarning qoniga antibiotik xususiyatlariga ega eritmalar doimiy kuniga 8-12 soattan 5 -7 kungacha quyilishi shart va bu kompleks vitaminliy inektsiyalar bilan qoshimcha turda olib borilishi shartligi aniqlandi.

T/r.	Hayvonlardan qon olingan qon vaqti	Tajribadagi hayvonlar soni	Davolash boshlangan vaqt	Natijalar
1	03.III.2022 yil	5	10.III.2022 yil	-
2	18.V.2022 yil	5	Birinchi analiz xulosasidan kelib chiqib qayta emlash vaqti	+
3	Jami ketkan vaqt: 03.III.2022 dan 27.V.2022 gacha			

Xulosa. Uy sharoitida boqilyatkan qoramollarning bunday kasalliklarga uchrashining oldini olish uchun, saqlash sharoitini yaqshilash o'z vaqtida molxonalarni tozalash va dezinfektsiya qilish oz vaqtida veterinar k'origidan o'tkazish, bahor ku'nlarida barcha oholi punktlarida qoramollarda profilaktika tadbirlarini otkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулмагамедов С.Ш., Рашидов А.А., Кабардиев С.Ш., “Вестник ветеринарий”. С-43.
2. пасоби по болезний крупного рогатого скота личенийе и профилактика . Москва 2008 г.
3. Internet ma'lumotlari:
<https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B5%D0%BB%D0%BE%D1%80%D0%B5%D0%B7>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kanalar>